



UDK:94(575.1)

Gulshanoy MADRAXIMOVA,
Harbiy xavfsizlik va mudofaa universiteti professori, t.f.n
E-mail: gulshanoy_madraximova@gmail.com

BuxDU professori, t.f.d Sh.Voxidov taqrizi asosida

BOOK PRINTING IN THE KOKAND KHANATE, ORIENTAL DECORATIONS: EXAMPLES FROM THE MUSEUM COLLECTIONS

Annotation

In this article, the museum's collections contain unique exhibits dating back to the Neolithic, Neolithic and Devonian eras, as well as the Neolithic era.

Key words: Museum, manuscript, Quran, devon, decorative styles, zarvaraq, letter, art.

КНИГОПЕЧАТАНИЕ В КОКАНДСКОМ ХАНСТВЕ, ВОСТОЧНЫЕ ОРНАМЕНТЫ: ОБРАЗЦЫ В ФОНДАХ МУЗЕЯ

Аннотация

В данной статье анализируются факторы, повлиявшие на подъем книжного дела Кокандского ханства до уровня национального искусства, восточные орнаменты в рукописях и девонах, а также их хранение в музейных фондах

Ключевые слова: Музей, рукопись, Коран, Девон, декоративные стили, позолота, письмо, искусство.

QO'QON XONLIGI DAVRIDAGI KITOBATCHILIK, SHARQONA BEZAKLAR: MUZEY FONDLARIDAGI NAMUNALARI

Аннотация

Ushbu maqolada Qo'qon xonligi davridagi kitobat ishining milliy san'at darajasiga ko'tarilishiga ta'sir etuvchi omillar, qo'lyozma va devonlardagi sharqona bezaklar, hamda ularning muzey fondlarida saqlanishi tahlil qilingan

Kalit so'zlar: Muzey, qo'lyozma, qur'on, devon, bezak uslublari, zarvaraq, xat, san'at.

Kirish. “Biz muqaddas dinimizni azaliy qadriyatlarimiz mujassaming ifodasi sifatida behad qadrlaymiz. Islom dini bizni ezgulik va tinchlikka, asl insoniy fazilatlarini asrab avaylashga da'vat etadi. Islom sivilizatsiya markazining faoliyati ham shu maqsadga xizmat qiladi”[1].

Bugungi kunda ushbu markaz tarkibida Arab-islom xattotlik maktabini ochish yo'lga qo'yilganligidan ushbu sohaga davlat siyosati darajasida e'tibor berilayotganligini qayd etish mumkin.

O'zbekiston tarixida Qo'qon xonligi davri diniy-ma'rifiy taraqqiyot, adabiy-ma'naviy muhitning uzliksiz ravishda rivojlanib borganligi bilan ajralib turgan. Ayniqsa, ushbu davrda shakllangan xattotlik, kitobat, qo'lyozma san'ati va bezakli kitob mahsulotlari (jumladan, Qur'on nusxalari, devonlar, tarixiy yozuvlar) Sharq madaniy an'alarining yuksak bosqichini namoyon qilgan. Qo'qon xattotlik maktabi Markaziy Osiyo miqyosida tan olingan tipologik, estetik xususiyatlarga ega bo'lib, uning muzey fondlaridagi akslari bugungi kunda milliy ma'naviy va madaniy merosni anglashda beqiyos manba vazifasini o'taydi.

Qo'qon xonligida xattotlik va kitobatning yuksalishiga sabab bo'lgan asosiy omil – bu diniy, ma'naviy-ma'rifiy muhitning kuchayishi, madrasalardagi ta'lim tizimining faoliyati, saroy atrofida adabiy-badiiy davralarning shakllanishi bilan bog'liq. Qo'qonda “Qur'on kitobatining keng quloqch yoygani, ayniqsa, Xudoyorxon saroyi kutubxonasi va boshqa xususiy to'plamlarda ko'chirilgan nodir nusxalarda islomiy xattotlikning suls, nasx, muhaqqaq kabi uslublari rangtasvir va zarhal bezaklar bilan uyg'unlashtirilgan holda estetik mukammallik darajasiga yetkazilganini” ko'rish mumkin[2].

Qo'qon xonligida sifatli qog'ozlar tayyorlanishi bu yerda kitobat san'atining ham rivojlanishida katta rol o'ynadi. Kitob yaratishda har xil mutaxassislar qatnashganlar. Bular

sahhof, xattot, qog'ozrez, mistarkash, rassom, muzahhib, muqovasoz va boshqalar. Bu jarayon ancha murakkab bo'lib, unda xattot hissasi katta bo'lgan. Qo'qon xattotlarining o'z uslublari mavjud bo'lib, boshqa shahar xattotlaridan ajralib turganlar. Ularning yana bir xususiyati shunda ediki, Qo'qon xattotlarining ko'pchiligi shoir, tarixchi va miniatyurachi edilar. Ular o'zlarining asarlari bilan Qo'qon xattotlik kasbini milliy san'at darajasiga ko'tardilar. San'atkor xattotlarning yozgan xatlari ma'no ifodalashdan tashqari kishilarni hayajonga solgan, ularga estetik zavq bergan. Xattot qalamida yozilgan har bir xat san'at mo'jizasi kabi o'lmas asar hisoblanadi.

Qo'qon xonligida shakllangan xattotlik namunalari O'zbekiston muzeylarida saqlanayotgan beqiyos moddiy-ma'naviy boylikdir. Shu bois, ularni chuqur ilmiy asosda tadqiq etish, kontekstual tahlil qilish va tarixiy-estetik ma'nolarini ochib berish – zamonaviy muzeyshunoslikning asosiy vazifalaridandir.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. Bugungi kunda Qo'qon xonligi davriga oid kitobat namunalari O'zR FA Alisher Navoiy nomidagi davlat adabiyot muzeyining qo'lyozmalar fondida saqlanmoqda. Muzeyda adabiyot, tarix, islom falsafasi, fiqh ilmi, mantiq ilmi, tilshunoslik, tibbiyot va boshqa sohalarga taalluqli turkiy, arabiy, forsiy tillarda bitilgan 800 dan ortiq qo'lyozma kitoblar mavjud[3]. Tadqiqotchi R.Abdullayevning “Qo'qon xonligida kitobat ishi va kutubxonalar tarixi” nomli monografiyasida Qo'qon xonligi davrida yaratilgan kitoblarning bezaklariga alohida urg'u bergan. G. Isaboeva “XIX asrda qo'qon xonligida madaniy hayot” nomli tadqiqot ishida “Buxoro va Xiva xattotlik maktablaridan Qo'qon maktabining o'ziga xos xususiyati, bu yerda nasta'liq bilan bir qatorda badiiy asarlarni kitobat qilishda shikasta xati ham keng iste'molda bo'lganligini” ta'kidlaydi.[4].

Tahlil va natijalar. Xonlikda kitobat ishining rivojlanishi va ravnaqiga ta'sir etuvchi eng muhim omil hukmdorlarning madaniy hayot borasida olib borgan davlat siyosatidir. Umarxonning (1810-1822 yillar) xonlik boshqaruvi kelishi mamlakatning madaniy hayotida, xususan, kitoblar yozish va ko'chirish borasida yangi davrni boshlab berdi. U hokimiyat tepasiga kelganining dastlabki vaqtlaridanoq kitob ko'chirish bo'yicha ko'rsatmalar beradi.

Qo'qon xoni Xudoyorxon davrida ham qur'oni Karimning qo'lyozmasi ko'p nusxada ko'chirilgan va vaqf mulki sifatida masjid hamda madrasalarga tarqatilgan. Unung nusxasi "Qo'qon" davlat muzey-qo'riqxonasida ham saqlanadi. Qur'oni karimning № 722, 723, PD-1916, DP-2498 kol-96/1 raqamli nusxalarida Xudoyorxonning muhri bilan birga kichik o'lchamdagi ovalsimon "vaqf fiy sabil-alloh" yozuvi bitilgan muhr ham qo'yilgan. Ushbu muhr boshqalaridan farqli ravishda ko'p o'rinlarda matn orasiga bosilgan [5]. Bugungi kunda Qo'qon davlat muzey-qo'riqxonasida 21 dona muhr saqlanadi. Ushbu muhrlar shayxulislom, qozilar, savdogarlar, tabibilar va boshqa soha mutasaddilariga tegishli. Taassufki, Qo'qon xonlarining muhrlari urilgan hujjat va kitoblardan bir qanchasi saqlanib qolgan holda, muhrlarning o'zi saqlanib qolmagan [6].

Qo'qon xonligi saroyida xattotlik maktabining shakllanishi, ayniqsa Umarxon, Muhammad Alixon va boshqa hukmdorlar homiyligida rivoj topgan bo'lib, bu faoliyatning ma'naviy zamirida Qur'on ko'chirish, hadis va fiqhii asarlarni yozma tarqatish, she'riy majmualarni bezatish amaliyotlari turadi.

Qo'qon xattotlik maktabi o'zining "murakkab kompozitsiyasi, bezak uslublarining yuqori darajada uyg'unlashuvi va diniy matnlarni vizual estetika bilan uyg'unlashtirganligi" jihatidan boshqa mintaqalardan ajralib turadi. Ayniqsa, qo'lyozma Qur'onlarda har sura boshida ishlatilgan zarhal lavhalar, tilla suvi bilan ishlangan naqshlar, va oyatlarni shakl jihatdan ajratib turuvchi geometrik tasvirlar o'quvchida matnga nisbatan muqaddas munosabatni

6-jadval [8]

№	Qo'qon davlat muzey-qo'riqxonasida saqlanayotgan yozma yodgorliklar va hujjatlar jamg'armasi	Umumiy soni
1.	Xonlik davri hujjatlari	370
2.	Qo'lyozma kitoblar	107
3.	Toshbosma asarlar	368
4.	Kirill yozuvidagi nodir kitoblar	685
5.	Vaqtli matbuot nashrlari, broshyura, buklet	1662
6.	Kartalar, sxemalar, tarxlar, diagrammalar	114
7.	Mustamlaka davri hujjatlari	4773
8.	Boshqa hujjatlar	243
	Jamg'armadagi eng noyob eksponatlar: XIV-XIX asrga oid qo'lyozmalar, Xudoyorxonga qarashli Qur'on, qo'lyozma bayozlar, devonlar, husnixat namunalari, Qo'qon qog'ozi, vaqfnomalar, shajaralar, vasiqalar, Qo'qon xonlarining farmon va yorliqlari.	
	Jami eksponatlar soni:	8322

Madaniy merosni aks ettiruvchi eksponatlar o'zbek xalqining 18-19 -asrlariga oid turmush tarzi va madaniyatini o'rganishda ahamiyati katta, chunki unda tarixiy davr ruhining aks etishi ularning qiymatini yanada oshiradi.

"Xalqimizning boy va betakror merosiga oid ko'p kitoblar, turli o'lkalarga sochilib ketgan qo'lyozmalar, noyob ma'lumotlar, san'at asarlari, afsuski, bizga noma'lum edi.... Ularni faqat yodgorlik sifatida saqlamasdan, faol ilmiy iste'molga kiritish, aholimiz, yoshlarimizga tushunarli tilda etkazish, jahon jamoatchiligiga keng targ'ib qilish kerak" [9].

Bugungi kunda Qo'qon xattotlik maktabiga mansub qo'lyozmalar, Qur'onlar, devonlar va boshqa asarlar muzey fondlarida (jumladan, O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi Qo'lyozmalar instituti, Farg'ona viloyat tarixi muzeyi va "Qo'qon" davlat muzey-qo'riqxonasi fondlarida) saqlanmoqda. Qo'qon davlat muzey-qo'riqxonasi fondida NV-575 raqami ostida «Xat namunalari» ham mavjud.

shakllantiradi. "Qo'lyozma qur'onlarda zarhal tasmlar, islmiy naqshlar va arabeska ramzlar orqali vizual zohtidlik ifodalangan bo'lib, bu qur'onni faqat o'qiladigan emas, balki ko'z bilan "ziyosat qilinadigan" matnga aylantirgan".

Qo'qon xattotligida bezakli devonlar ham alohida o'rin tutadi. Bu devonlarda so'z va naqsh birlashgan, matn va musavvirlik orasida semantik uyg'unlik hosil qilingan.

Qo'lyozmalardagi sharqona bezaklarning ichki semantik qatlamlari, ularning islomiy ma'naviyatiga, tasavvufiy ramziylikka tayangan holda yaratilganligi, ushbu estetik mahsulotlarni faqat san'at namunasi emas, balki ijtimoiy voqelikning ifodasi sifatida talqin qilishga imkon beradi. "Qo'qon bezakli qo'lyozmalari – bu qadimiy vizual tafakkurning kodlangan shaklidir". Musavvirlik tomonidan chizilgan suratlar kitobni badiiy bezash bilan birga o'sha davr ma'naviyatini tushunishga imkon beradi. Tasvirda oltin, kumush bo'yoqlari va ishlatilgan turli ranglar orqali rangshunoslik tarixi, tabiiy ranglarning uzoq saqlanishi haqidagi bilimlarimiz ortadi. Kitob suratlari orqali biz o'sha asr tabiati, binolari, turli tabaqa va kasbdagi inson libosi, harbiylar qurol-aslahalari, tibbiyot, falakshunos olimlari foydalangan fan, zarbli, torli, puflab chalinadigan musiqa cholg'u asboblarning turlari, ko'rinishi kabi muhim ensiklopedik ma'lumotlarni olishimiz mumkin [7].

Qo'qon davlat muzey-qo'riqxonasida yozma yodgorliklar va hujjatlar jamg'armasi ham alohida e'tibor bilan saqlangan. Ushbu jamg'arma qog'oz bilan bog'lik bo'lgan barcha eksponatlarni o'z ichiga oladi. Jamg'armada qog'oz ishlab chiqarish, xattotlik va kitobat san'atlari, yer-suv mulkchiligi tarixi, vaqf institutlari, qozixona faoliyati, tosh bosma, nashriyot, jurnalistika, idoralarda ish yuritish, ijtimoiy hayot, ijtimoiy kategoriyalar, madaniy va ma'rifiy hayot o'z aksini topgan.

Bu jamg'armadagi eksponatlarning umumiy soni jamg'arma mohiyat va mazmuniga ko'ra quyidagi bo'limlarni o'z ichiga oladi:

Qo'qon xonligidagi xattotlik san'atida, qo'lyozmalarining aksariyat qismida xattotning ismi, ko'chirish joyi, yili, ba'zan mehnatga oid izohlar ham berilgan bo'lib, bu qo'lyozmalarni tarixiy-madaniy hujjat sifatida baholash imkonini beradi. Ayniqsa, Qo'qonda ko'chirilgan "Devoni Fuzuliy", "Devoni Navoiy", "Badoe' ul-bidoya" kabi asarlar muallifning estetik qarashlari bilan xattotlik uslubining sintezida ajralib turadi.

Qo'qon xonligidagi xattotlardan biri shoir va tarjimon Muhammadqul Muhammadrasul o'g'li Muhayyir Alisher Navoiyning terma devonini ko'chirgan bo'lib, bu qo'lyozma 226- inventar raqami bilan Alisher Navoiy nomidagi Davlat Adabiyot muzeyida saqlanmoqda. Devon oxirida xattotning quyidagi so'zlari mavjud: "Tamom yoft in nusxai sharifi devoni latifi muntaxab, tasnifi orifi komil va mukammal Mir Alisher Navoiy laqabi Navoiy – quddisa sirruhu – badasti

kaminai kamtarin Mullo Muhammadquli ibn Mullo Muhammadrasul..."[10].

Bundan tashqari Muhayyir "Saloti Mas'udiy" nomli fiqh ilmiga oid kitobni fors tilidan turkiyga o'g'irgan. Bu mo'tabar kitob Mas'ud ibn Mahmud ibn Yusuf Samarqandiy qalamiga mansub bo'lib, XV asrda yozilgan U shariatda mavjud bo'lgan barcha masalalarni o'z ichiga olgan. Kitob 1906 yilda Toshkentda chop etilgan. Shuni aytib o'tish lozimki, Muhayyir bu kitob tarjimasiga batafsil debocha va xotima yozgan. Ushbu kitob O'rta Osiyo, Hindiston va Afg'onistonda keng tarqalgan va madrasalarda darslik sifatida o'qitilgan[11].

Xattotlik – bu nafaqat yozuvni chiroyli qilish mahorati, balki diniy axloq, ruhiy poklik va tafakkurning yorqin namoyonidir. Qo'qon shahridagi tarixiy kutubxonalar va bugungi muzey fondlarida saqlanayotgan qo'lyozma Qur'onlar, devonlar va tarixiy risolalar buni yaqqol isbotlaydi.

Qo'qon xonligi davrida xattotlik faqat san'at emas, balki ma'naviy-intellektual faoliyatning vositasi sifatida qaralgan. Yaratilgan qo'lyozmalar, xususan Qur'on nusxalari ko'pincha murakkab bezakli sahifalar bilan boshlangan bo'lib, unda g'irih naqshlar, islamiy kompozitsiyalar, muhaqqaq yoki suls xat bilan yozilgan "Bismilloh"lar, zarhal chizmalar, ko'k va moviy ranglarning mutanosibliigi, markaziy sahifada esa zarhal markazli simmetrik naqshlar islomiy kosmologiyaning estetik shaklidir.

Qo'lyozmalarda asarning nihoyasi-xotimasiga ham alohida e'tibor berilgan. Kitobni shakllantirishda uning muqovasi-jildi katta ahamiyat kasb etgan. Muqova tayyorlash XVIII-XIX asrlarda san'at darajasiga ko'tarilgan. "Buxoro va Qo'qon xonliklarida tayyorlangan muqovalar o'zining

nafisligi va pishiqligi bilan boshqa Sharq hududlaridagidan keskin farqlanib turgan" 19-yuzillikda mintaqada kitobni muqovalash ishlarini olib borishda "Qo'qonlik ustalar peshqadam" bo'lganlar.

Shuningdek, mohir ustalarning maxsus muhrlari bo'lgan. Bunday muhrlar odatda Qo'qonda, sariq misdan yoki "haftjo'sh" deb atalgan etti xil metall qorishmasi (temir, rux, qalay, qo'rg'oshin, mis, kumush, oltin) "sharqona bronza"dan quyilgan.

Toshkent qo'lyozmalarida esa kitobat san'atining mahalliy an'analari, xalqona naqsh turlaridan keng foydalanilgan.

Matn joylashtirishda, asosan saroy qo'lyozmalarida hoyu hasham, dabdaba yaqqol seziladi. Gohida oltin suvi yuritilgan, o'ta yorqin va tiniq ranglar (alvon, och yashil va tillarang uyg'unligi) ishlatilgan hashamdor qo'lyozmalarda kitob boshidagi bezakli zarvaraqlar soni yigirma ikkitagacha borgan va ularning har bir sahifasida yangi kompozitsiyalar ishlatilgan [12].

Xulosa va takliflar. O'zbekistonning madaniy-tarixiy taraqqiyotida Qo'qon xonligi davrini tahlil qilganda xattotlik, kitobat san'ati yuqori darajada rivojlanganligini ko'rish mumkin. Bu jarayon islomiy ma'rifatparvarlik, saroy ilmi va madaniyatining bir butun uyg'unligidan vujudga kelgan.

Bugungi kunda Qo'qon xattotlik va kitobat maktabining namunalari, nafaqat badiiy ijod namunasi, shu bilan birga madaniy va tarixiy ongning vizual ifodasidir. Ularning muzey fondlarida saqlanishi va talqini, zamonaviy muzeyshunoslikda tarixiy semantika, diniy ramziylik va vizual kommunikatsiya mezonlari asosida chuqur tadqiq etilishi zarur.

ADABIYOTLAR

1. <https://yuz.uz/news>. Murojat sanasi. 2025 yil, 20 iyul.
2. Abdullaev A. Qo'qon xattotligi va Qur'on kitobati an'analari. – Toshkent: Sharq, 2017. – B. 84.
3. Alisher Navoiy nomidagi Davlat adabiyot muzeyining qo'lyozmalar katalogi. – Toshkent. 2022. – B. 2.
4. Isaboeva G. XIX asrda qo'qon xonligida madaniy hayot. Tarix fan. nom. diss. ... – Toshkent, 2010. – B.81.
5. Abdullaev R. Qo'qon xonligida kitobat ishi va kutubxonalar tarixi. Toshkent: Tamaddun, 2025. – B.15.
6. Dadaboev Ya. Ho'qandi latif hunarmandchiligi. – B. 236.
7. Sabirov M. Kitobat san'ati: O'kuv qo'llanma. Kamoliddin Bexzod nomidagi Milliy rassomlik va dizayn instituti. - T.: «Info Capital Group», 2018. – B.28.
8. Jadval G.S.Madraximova tomonidan tuzilgan.
9. <https://president.uz/uz>.
10. Alisher Navoiy nomidagi Davlat Adabiyot muzeyi qo'lyozmalar fondi, Inv. №226. – V. 176.
11. Dehqonov A. Muhayyir va uning adabiy merosi.T.: "Ziyo nashr" nashriyoti, 2021.-B.129.
12. O'zbekiston madaniy merosi. (Sankt peturburg, Rossiya).Rossiya Fanlar Akademiyasi sharq qo'lyozmalar instituti to'plami VII. "Silk Road Media". Toshkent. 2020.-B.87.